Oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan paraarmrestlingchi talabalarni musobaqa oldidan texnik tayyorgarligini takomillashtirish	617
<i>Karimov Faxriddin Xurramovich</i>	
Developing Critical Reading Skills Through Content-Based Instruction.....	621
<i>Mekhmonkulov Burkhon Ma'ruf ugli</i>	
Tog'li va shahar hududida ta'lim oluvchi tinglovchilarning jismoniy tayyorgarlik darajasini taqqoslash	626
<i>Mirjamolov Sirojiddin Xayriddinovich</i>	

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS	Korxonada va tashkilotlarda ishchi-xodimlarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish asosida ish faolligini oshirish texnologiyasi	630
	Muxametov Axmad Muxametovich	
	Xalq ta'limi bo'limi rahbarlarining xalqaro baholash tizimini O'zbekiston ta'limiga moslashtirishdagi o'rni ...	634
	Namazova Manzura Urakovna, Nodirov Dilmurod	
	Digital Reading vs. Print Reading: Effects on EFL Learners' Reading Speed and Understanding	639
	Rustambekova Ozoda Dilshod kizi	
	Yoshlarning jismoniy tarbiya mashg'ulotlariga bo'lgan qiziqishini oshirishning samarali usullari	644
	To'rayev Farrux Hakim o'g'li	
	Oliy ta'lim muassasalaridagi talaba-qizlarni dzyudo sport turi texnik harakatlariga o'rgatish texnologiyasi	647
	Toshboyeva Munisa Bozor qizi	
	Sport mashg'ulotlarda jarohatlarning oldini olish va xavfsizlik choralarini	650
	Xudoyberdiyeva Elmira Botir qizi	
	Задачи изучения и преподавания русского языка и литературы в общеобразовательных школах с узбекским языком обучения	654
	Ахмедов Нумон	
	Multimedia va infografika asosida interaktiv didaktik materiallar yaratish	658
	Shirinov Feruzjon Shuxratovich, Rahmonov Ziyodillo Xusanovich	
	Ingliz tili darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining talaffuz ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi (immitativ-taqiidiy usul misolida)	661
	Jo'rayeva Dilafuz Nuriddinova	
	O'simliklarning issiqqa va qurqoqchilikka chidamliligi	664
	M. Nazarov, G. Maxsudova, T. Usmonova	
	Maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy tayyorgarligi hamda psixik jarayonlar ko'rsatkichlarining tahlili	667
	Masharipova Miyassar Ichanovna	
	Bo'lajak tarbiyachilarni "Tabiat bilan tanishtirish" fani asosida tarbiyaviy faoliyatini raqamlashtirish	675
	Saydullayeva Barchinoy Abduxalil qizi	
	Bo'lajak o'qituvchilarni inklyuziv ta'lim sharoitida faoliyat yuritishga tayyorlash muammolari	678
	Shaxnoza To'xtiyarova	
	Raqamli ta'lim muhitida o'quv resurslarini yaratishning raqamli-didaktik mazmunini rivojlantirish metodikasi	681
	Shirinov Feruzjon Shuxratovich	
	Umumta'lim maktablarining 9-sinf fizika darslarida tovush hodisasini anglashni tajriba orqali rivojlantirish	684
	Sobirov Avazbek Anvarovich	
	Emotsional intellekt tushunchasining nazariy asoslari va rivojlanish bosqichlari	689
	Tajiboyeva Odinoxon Rustamjon qizi	
	Portret janrini o'qitishda individual ta'lim va fanlararo integratsiyaning nazariy-metodologik asoslari	693
	Xudaynazarova Ug'illov Sharifovna	
	Aqli zaif bolalarda sensomotor rivojlanishning psixologik-pedagogik xususiyatlari	696
	Xudoyberdiyeva Ra'no Arabboyevna	
	Yuqori sinf o'quvchilarida estetik madaniyatni tarbiyalash metodikasi (tarbiya fani misolida)	700
	Yoqubjonova Shodiya G'ayratovna	
	Chizmachilik fanining turmush tarzimidagi ahamiyati va o'rni	704
	Achilov Nurbek Norboy o'g'li	
	O'quvchilarni musiqa san'atiga qiziqtirishda musiqa psixologiyasining roli	707
	E'zozxon Qobilova	
	Bolalar adabiyotini o'qitishda milliy qadriyatlarni singdirish va kreativ kompetensiyani rivojlantirishning innovatsion yo'llari	710
	G'aniyeva Shodiya Azizovna, Abdullayeva Madinaxon Madaminjon qizi	
	Boshlang'ich sinf darsliklarida berilgan mashqlarni til kompetensiyasini rivojlantirish maqsadida tahlil qilish	713
	G'anijonova Sarvinov, Zokirova Sohiba Muxtoraliyevna	
	O'quvchilarda global o'qish savodxonligini shakllantirishda milliy matnlar va qadriyatlar asosidagi pirls tipidagi topshiriqlar yaratish tajribasi	717
	Ikromova Gulhida Axmadillo qizi, G'ofurova Dilshodaxon Toxirjon qizi	



Bo'lajak pedagoglarni intellektual rivojlantirishda pedagogik artistizmdan foydalanish texnologiyalari pedagogik muammo sifatida	720
<i>Karribayeva Lobarxon Fayzulla qizi</i>	
Ilmiy matn o'qib tushunish va baholashda nostandart testlardan foydalanish bosqichlari.....	724
<i>Komilova Lola Nasilloeyvna</i>	
Dizartriyada tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarni o'yin orqali rivojlantirish texnologiyalari.....	728
<i>Mamatova Muzayyana Batirovna</i>	
Turkiy bitiklarda nomlar tizimi va ularning semantik xususiyatlari	732
<i>Munisa Shavkatova</i>	
Kommunikativ yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarni mediatorlik faoliyatiga tayyorlash texnologiyasini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari	736
<i>Muqimova Dilbarxon Xusanboyevna</i>	
Sportda liderlik va jamoaviy ruhni shakllantirish metodlari	740
<i>Nazarov Nursultan Safarbayevich</i>	
Dars mashg'ulotlarini tashkil etishda loyihalashtirishning o'rni va ahamiyati.....	744
<i>Normurodov Sharofiddin Muxiddinovich</i>	
Ta'limda innovatsion kompetentlikning ahamiyati.....	748
<i>Qobilova Aziza Tursunovna</i>	
Innovatsion ta'lim texnologiyalari orqali bolalarda tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirish	752
<i>Salimova Aziza Sharipovna</i>	
Xorijiy tillarni o'qitishda masofaviy ta'limning imkoniyatlari va muammolari	755
<i>Sidiqova Ma'mura Adhamjonovna</i>	
Til kompetentligini rivojlantirishda vizual materiallardan foydalanishning o'rni (boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini oshirish texnologiyasi misolida)	758
<i>Zokirova Sohiba Muhtoraliyevna, Sobirova Diloromxon Ma'rufjon qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi ko'xlear implantli bolalarni eshituv - nutqiy reabilitatsiyasi	761
<i>Xamraeva Dildora Baxadirovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda duduqlanishni kelib chiqish sababalari va korreksion ishlar	766
<i>Xolboeva Ruxsora Egamberdiyevna</i>	
Эффективность арт-терапии в обогащении словарного запаса у детей с ЗПП	770
<i>Наган Олеся Талгатовна</i>	
Autizmlı bolalar nutqini rivojlantirishda o'yinning ahamiyati.....	775
<i>Nishonova Sevara</i>	
Boshlang'ich sinflarda disgrafiyasi bo'lgan o'quvchılarda yozish kompetensiyalarini shakllantirishning ilmiy nazariy asoslari (XIX–XXI asrda).....	778
<i>Qaxxorova Saidaxon, Mamarajabova Zulfiya</i>	
Autizmlı bolalarda kommunikativ muloqotni shakllantirish texnologiyalari.....	781
<i>Raxmonova Manzura Maxmudovna</i>	
Talabalarda ma'naviy ongning rivojlanishidagi milliy dunyoqarash va tafakkur uslubining shakllanish omillari	785
<i>Usarova Nigora Berdiyarovna</i>	
PIRLSda qo'llaniladigan yuqori darajadagi tushunish ko'nikmalari (interpretatsiya, sintez) va ularni muloqotga o'rgatishda qo'llash	788
<i>Choriyeva Valida Abdug'ani qizi, Shodiyev Faxriddin Teshayevich</i>	
Prokrastinatsiya fenomenining retrospektiv talqini	795
<i>M. L. Aripova</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda millatlararo totuvlikni shakllantirishda badiiy adabiyotning o'rni.....	799
<i>Xudoyberdiyeva Madina Abdulbaki qizi</i>	

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI INKLYUZIV TA'LIM SHAROITIDA FAOLIYAT YURITISHGA TAYYORLASH MUAMMOLARI

Shaxnoza To'xtiyarova

O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti Logopediya kafedrası dotsenti
v.b., pedagogika fanlari doktori (DSc)

Annotatsiya: Mazkur maqolada inklyuziv ta'lim amaliyotini joriy etishning o'qituvchining kasbiy-pedagogik faoliyatiga ta'siri hamda bu jarayonda yuzaga keladigan o'zgarishlar tahlil qilinadi. Inklyuziv ta'lim sharoitida o'qituvchining kasbiy faoliyati mazmuni, uslubi va tashkiliy asoslarini qayta ko'rib chiqish zarurligi ta'kidlanadi. Maqolada o'qituvchining akademik, kasbiy hamda ijtimoiy-shaxsiy kompetensiyalarining uyg'unlashuvi va alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilar bilan samarali ishlashdagi ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, o'qituvchining kommunikativ faoliyati, ota-onalar hamjamiyati bilan hamkorlik mexanizmlari va inklyuziv ta'lim muhiti uchun zarur moddiy-texnik bazani shakllantirish masalalari tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: inklyuziv ta'lim, kasbiy-pedagogik faoliyat, o'qituvchi kompetensiyasi, alohida ta'lim ehtiyoji, kommunikativ kompetensiya, ijtimoiy hamkorlik.

Abstract: This article analyzes the impact of implementing inclusive education practices on the professional and pedagogical activities of teachers, as well as the changes that occur throughout this process. It emphasizes the need to reconsider the content, methods and organizational foundations of teaching activities within an inclusive educational environment. The article highlights the integration of teachers' academic, professional and socio-personal competencies and their importance in effectively working with students who have special educational needs. It also examines teachers' communicative activities, mechanisms of cooperation with the parent community, and the formation of the material and technical resources required for an inclusive learning environment.

Key words: inclusive education, professional and pedagogical activities, teacher competence, special educational needs, communicative competence, social cooperation.

Аннотация: В статье анализируется влияние внедрения инклюзивного образования на профессионально-педагогическую деятельность учителей, а также изменения, происходящие в данном процессе. Подчеркивается необходимость пересмотра содержания, методов и организационных основ профессиональной деятельности педагога в условиях инклюзивной образовательной среды. В статье раскрывается интеграция академических, профессиональных и социально-личностных компетенций педагога и их значение для эффективной работы с обучающимися, имеющими особые образовательные потребности. Также рассматриваются коммуникативная деятельность учителя, механизмы взаимодействия с родительским сообществом и вопросы формирования материально-технической базы, необходимой для инклюзивной образовательной среды.

Ключевые слова: инклюзивное образование, профессионально-педагогическая деятельность, компетентность педагога, особые образовательные потребности, коммуникативная компетентность, социальное взаимодействие.

KIRISH

Inklyuziv ta'lim amaliyotini amalga oshirish o'qituvchi ishining tabiati, mazmuni va uslubiy modeliga sezilarli o'zgarishlar kiritadi. Inklyuziv ta'lim sharoitida kasbiy-pedagogik faoliyatning subyektiv-funksional tahlili o'qituvchining strategik va joriy maqsadlarga erishishga qaratilgan funksiyalarini aniqlashga imkon beradi. Shuni hisobga olish kerakki, inklyuziv ta'lim shartlari – bu jamoat ongidagi, qadriyatlar tizimidagi o'zgarishlarni va nihoyat, kasbiy-pedagogik faoliyatning tashkiliy asoslari hamda mazmunini o'zgartirishga olib keladigan omillardir. Kasbiy faoliyatdagi o'zgarishlarga tayyorlikning asosi esa bu o'zgarishlar bilan birga keladigan xavflarni shaxs sifatida idrok etishdir. Xavf odatda tanlov sharoitida amalga oshiriladigan, ko'p qirrali shaklda namoyon bo'ladigan va miqdoriy hamda sifat jihatidan baholanishi mumkin bo'lgan muayyan harakatlarning potentsial yoki real natijasi sifatida belgilanadi.

Inklyuziv ta'lim sharoitida o'qituvchining kasbiy xavflari yangi kasbiy sharoitlarda ta'limiy faoliyat natijalarining salbiy oqibatlarini ehtimoli bo'lib, u inklyuziv ta'lim muhitidagi har bir ishtirokchining shaxsiyatiga yoki ta'lim natijalariga ta'sir ko'rsatishi mumkin.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Inklyuziv ta'lim bo'yicha xalqaro tadqiqotlarda o'qituvchilarning psixologik va kasbiy tayyorligi muhim omil sifatida ko'riladi. Brunsting, Sreckovic va Lane 2014-yilda olib borgan yirik tahliliy tadqiqotida maxsus ta'lim sharoitida ishlovchi o'qituvchilarda yuqori darajadagi stress va professional charchoq kuzatilishi, bu esa inklyuziv guruhlarda samarali ishlashga bevosita ta'sir ko'rsatishini ko'rsatadi. Shuningdek, Piskunova o'qituvchining pedagogik faoliyatidagi funksional o'zgarishlar ijtimoiy-madaniy muhit bilan bevosita bog'liqligini ta'kidlab, inklyuziv ta'limda o'qituvchidan kengaytirilgan kommunikativ va adaptiv kompetensiyalar talab etilishini qayd etadi. Xusnutdinova o'z tadqiqotida inklyuziv ta'limning kasbiy xavf omillarini tahlil qilib, o'qituvchilarning ehtiyojlari va jamoaviy hamkorlik ko'nikmalari yetarli darajada shakllanmaganda ta'lim jarayonida muammolar kuchayishini asoslab beradi.

Kasbiy tayyorgarlik tarkibi bo'yicha olib borilgan ilmiy ishlarda bo'lajak o'qituvchilarning kompetensiyaviy modelini takomillashtirish zarurligi alohida ta'kidlanadi. Vaganova tomonidan o'qituvchi faoliyatining mazmuni va strukturasi chuqur yoritilar ekan, zamonaviy ta'lim sharoitida metodik moslashuvchanlik, ta'lim ehtiyojlari xilma-xilligini inobatga olgan yondashuv va refleksiv tajribaning ahamiyati ko'rsatib beriladi. Na Zhou, Tigelaar va Admiraalning 2022-yildagi tizimli sharhi esa pedagoglarning kasbiy o'sishi, yangi metodlarni o'zlashtirishi va inklyuziv kompetensiyalarni rivojlantirish o'rtasida bevosita bog'liqlik mavjudligini ilmiy asoslaydi. Ushbu tadqiqotlarning barchasi inklyuziv ta'limda o'qituvchi faoliyati murakkab, ko'p komponentli va ayniqsa kasbiy tayyorgarlik sifatiga kuchli bog'liq ekanini ko'rsatadi.

TADDIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda ma'lumotlar asosan normativ-huquqiy hujjatlar, xalqaro va mahalliy ilmiy manbalar, inklyuziv ta'lim bo'yicha amaliy tajribalar hamda o'qituvchilarning kasbiy faoliyatiga doir mavjud ilmiy izlanishlarni tahlil qilish orqali yig'ildi. Ma'lumotlarni olish jarayonida adabiyotlar tahlili, kontent-analiz va taqqoslash metodlaridan foydalanildi. Inklyuziv ta'lim sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning kompetensiyalari, kasbiy tayyorgarlik darajasi va ta'lim jarayonidagi ehtiyojlari bo'yicha ilmiy qarashlar chuqur o'rganilib, ularning o'zaro uyg'unligi aniqlangan. Olingan ma'lumotlar tematik guruhlash, analitik solishtirish va umumlashtirish orqali qayta ishlanib, inklyuziv ta'limga tayyorlikning asosiy omillari, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish imkoniyatlari bo'yicha ilmiy xulosalar shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Kasbiy-pedagogik faoliyatning tarkibiy qismlari hal qilinayotgan amaliy muammolar mazmuni bilan belgilanadigan konsentrik funksional munosabatga ega. Har bir funktsiyani amalga oshirish samaradorligi uni bajarishga shakllangan tayyorlik bilan belgilanadi. Bu esa, o'z navbatida, akademik (ma'lum bir bilim sohasining metodologiyasi va terminologiyasini egallash, faoliyat yurituvchi tizimli munosabatlarni tushunish, shuningdek, amaliy muammolarni hal qilishda ulardan foydalanish qobiliyati), kasbiy (real pedagogik vaziyat talablariga muvofiq maqsadga muvofiq harakat qilishga tayyorlik va qobiliyat) va ijtimoiy-shaxsiy (shaxsning o'ziga tegishli vakolatlar majmui hamda shaxs sifatida, shaxsning boshqa odamlar, guruh va jamiyat bilan o'zaro munosabati) kompetensiyalari majmuasi bilan belgilanadi [2, 119-b.].

Aynan o'qituvchi alohida ta'limga muhtoj bo'lgan bolani qo'llab-quvvatlash guruhining (o'qituvchi-defektolog, pedagogik psixolog, ijtimoiy pedagog va boshqalar) boshqaruvchisi hisoblanadi. Kasbiy va pedagogik qarorlar o'qituvchi-defektolog, pedagogik psixolog va ijtimoiy pedagogdan olingan maslahatga tayanilgan holda qabul qilinadi. Alohida ta'limga muhtoj o'quvchilarning polisub'yektiv va xilma-xil ta'lim imkoniyatlari va ehtiyojlari pedagogik vazifalar va amallarning tabiati hamda tarkibini belgilaydi. Shunday qilib, inklyuziv ta'lim sharoitida kognitiv vazifaga aylantirilgan pedagogik amallar ko'p omilli ta'sirlar bilan belgilanadi. Bu, albatta, yuzaga kelayotgan pedagogik tadbirning ko'p vektorli xususiyatini keltirib chiqarib, o'z navbatida mavjud vositalar, shartlar, natijalar va yangi pedagogik vazifani shakllantirish, uning yechimi inklyuziv ta'lim makonining barcha ishtirokchilariga ta'sir o'tkazadi.

O'quv jarayonining o'quv va moddiy bazasini loyihalash samarali ta'lim faoliyati uchun sharoit yaratadigan va har bir bolaning alohida ta'lim ehtiyojlarini qondiradigan keng ko'lamlil maxsus o'quv-didaktik vositalar va materiallarni bilish hamda ulardan foydalanishni nazarda tutadi. Moddiy-texnik bazani loyihalash bo'yicha ishlar muvofiqlashtirilgan faoliyatni hamda alohida ta'limga muhtoj bolani qo'llab-quvvatlovchi mutaxassislar guruhining maslahatlarini o'z ichiga oladi.

Muvaffaqiyatli vaziyatni yaratish bilan birga, har xil faoliyat turlarida (guruh, jamoaviy, maktabdan tashqari) ishtirok etishda har bir bolaning individual imkoniyatlarini hisobga olish zarur. Bunday ish har bir bolaning ilmiy va ijtimoiy kompetensiyalarini, uning boshqa o'quvchilar bilan o'zaro munosabatda bo'lish va muloqot qilishga tayyorligini va qobiliyatini, shuningdek, bolalar faoliyatini tashkil etishda olingan natijalarni hisobga olishni o'z ichiga oladi.

Har qanday farqlar va “o'zgachalik”ka bag'rikenglik hamda hurmatli munosabatni shakllantirish asosida bolalar jamoasini yaratish bo'yicha ishlarga asos yaratiladi. Bolalar guruhining tashqi ko'rinishdan bir xilligi turli xil xarakteristika va xususiyatlarda, jumladan jismoniy va/yoki aqliy rivojlanishda namoyon bo'ladigan xilma-xillik bilan almashtiriladi. Bu o'qituvchidan har bir bolaning xususiyatlarini bilishni, uning kuchli tomonlariga tayanishni va imkoniyatlarini qo'llashni avvaldan rejalashtirishni talab qiladi [1, 685-b.].

Bolalarning ta'lim imkoniyatlari va ehtiyojlari bilan belgilanadigan yagona inklyuziv ta'lim makonida ta'lim natijalarini tabaqalashtirilgan, ko'p bosqichli tarzda belgilash va shakllantirish joiz. Bunda bolalarning alohida ehtiyojlari va turli darajadagi imkoniyatlari ta'lim natijalarining mazmuni va talablarini, shuningdek ularni aniqlash va baholashga yondashuvlarni belgilaydi. Har bir aniq holatda akademik va ijtimoiy-shaxsiy kompetensiyalarning hajmi, chuqurligi va o'zlashtirish darajasi o'rtasidagi muvozanat bolaning imkoniyatlari, ehtiyojlari va uning bevosita ijtimoiy muhiti bilan belgilanadi.

Bir tomondan, o'quv jarayonida muqobil aloqa vositalari va usullarini o'zlashtirish va ulardan foydalanishni, boshqa tomondan, muloqot sheriklari doirasini kengaytirishni nazarda tutadigan kommunikativ kompetensiya chegaralarini kengaytirish zarur. Alohida ehtiyoji bo'lgan barcha bolalar og'zaki nutqni qo'llashda u yoki bu darajadagi qiyinchiliklarga duch kelishadi. Ko'pincha nutqni rivojlantirish xususiyatlari ta'limdagi muvaffaqiyatsizlikning asosiy sababidir. Shuning uchun inklyuziv ta'lim sharoitida kasbiy-pedagogik faoliyatning kommunikativ komponenti aniq o'ziga xoslikka ega bo'ladi.

Ota-onalar hamjamiyatini ta'lim muammolarini, shu jumladan bolalar o'rtasidagi o'zaro muloqot va munosabat muammolarini hal qilishda keng jalb qilish usullari va yo'llarini izlash hamda ishlab chiqish ustida ishlash ham katta ahamiyatga ega.

Kasbiy-pedagogik faoliyatning sanab o'tilgan xususiyatlari o'qituvchilarni inklyuziv ta'lim sharoitida ishlashga tayyorligining kompetensiya mazmunini belgilaydi. Shu bilan birga, bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayonining mazmuni hamda kasbiy faoliyatning vazifalarida inklyuziv ta'lim muhitini yaratish konsepsiyalari, sinfdagi o'quvchilarning ta'lim ehtiyojlari va imkoniyatlarining xilma-xilligini inobatga olgan holda o'quv materialini moslashtirish yo'llari, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning turli toifalarini o'qitish xususiyatlari, mavjud farqlarga nisbatan bag'rikenglik va hurmat asosida o'quvchilarning muloqoti va o'zaro munosabatlarini tashkil etish aks ettirilmaydi. Bunday muhim vazifaga e'tiborning yetishmasligi inklyuziv ta'lim muhitini shakllantirish va qo'llab-quvvatlash o'qituvchining e'tibori va g'amxo'rliqi obyektiga aylanmasligiga olib kelishi mumkin [5, 30-b.].

Mutaxassisning ta'lim natijalariga qo'yiladigan talablar (o'quv, kasbiy va ijtimoiy-shaxsiy kompetensiyalar majmuasi) inklyuziv ta'lim sharoitida kasbiy-pedagogik faoliyatning xususiyatlarini aks ettirmaydi va shunga mos ravishda ishlab chiqilgan kompetensiyalar bo'lajak o'qituvchini tayyorlash mazmuni uchun ijtimoiy buyurtma talablariga to'liq javob bermaydi.

Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash bo'yicha o'quv rejasini tashkil etuvchi o'quv fanlarining taklif etilayotgan umumiy mazmuni inklyuziv ta'lim maydonining ko'p subyektivligini, shuningdek o'quvchilarning alohida ta'lim ehtiyojlarini hisobga olish va qondirish imkonini beradigan yangi (ba'zan maxsus) didaktik va uslubiy vositalarni o'zlashtirish zaruratini inobatga olmaydi va asoslanmaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqorida aytilganlarning barchasi umumta'lim boshlang'ich sinflarda faoliyat yurituvchi o'qituvchilarning inklyuziv ta'lim sharoitida muvaffaqiyatli ta'lim berishi uchun zarur bo'lgan kasbiy faoliyatning haqiqiy amaliy shartlariga to'liq mos kelmasligini ko'rsatadi. Bu esa, o'z navbatida, o'qituvchilarning inklyuziv ta'limga tayyorligi, kompetensiyalarining yetarli darajada shakllanmaganligi va amaliyotga yo'naltirilgan metodik ko'nikmalarni takomillashtirish zaruratini ta'kidlaydi.

Shuningdek, inklyuziv muhitda samarali faoliyat yuritish uchun o'qituvchining akademik, kasbiy va ijtimoiy-shaxsiy kompetensiyalarini tizimli ravishda rivojlantirish, o'quvchilarning ehtiyojlari va imkoniyatlariga moslashgan ta'lim texnologiyalaridan foydalanish, ota-onalar hamjamiyati bilan hamkorlikni kuchaytirish hamda ta'lim jarayonini qo'llab-quvvatlovchi moddiy-texnik sharoitlarni yaratish muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Brunsting, N. C., Sreckovic, M. A. & Lane, K. L. (2014). Special Education Teacher Burnout: A Synthesis of Research from 1979 to 2013. *Education and Treatment of Children*, 37, 681–712.
2. Na Zhou, Dineke E. H. Tigelaar, Wilfried Admiraal. Vocational Teachers' Professional Learning: A Systematic Literature Review of the Past Decade. *Teaching and Teacher Education*, 119, November 2022, 103856.
3. Ваганова, В. И. Структура и содержание профессиональной деятельности будущего учителя. *Вестник Бурятского государственного университета. Философия*, (SB), 2012, 92–97.
4. Пискунова, Елена Витальевна. Социокультурная обусловленность изменения функций профессионально-педагогической деятельности учителя. *Известия РГПУ им. А. И. Герцена*, 2005, №12.
5. Хуснутдинова, М. Р. Риски инклюзивного образования. *Образование и наука*, 2017, (3), 26–46.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.